



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

qo'llaniladi. "Issiq kasallik" esa qadimgi tibbiy atama bo'lib hisoblanadi va u hozir tilimiz iste'molida emas.

18. Chunonchi, "**Tashrihi murakkaba**"(murakkab a'zolar tashrihi) bobida aytilniki, barhca a'zolarining mizoji bir-biridan farq qiladi.(20- bet)

Hozirda iste'molda bo'lmagan hamda ma'nosi saqlanib qolinmagan atama(istorizm) – "Tashrihi murakkaba"

19. Chunki, **o'ngach o'zi yeyiladigan va ichiladigan narsaning o'tish yo'lidirki**, unga ichiladigan davo bir onda yetadi.(o'ngachga berilgan ta'rif tasviriy ifoda sifatida qaraladi, 2- bet)

Izoh: Tasviriy ifoda: O'ngach- "o'zi yeyiladigan va ichiladigan narsaning o'tish yo'li"

20. Shuningdek, **usr ul-bal kasalligining turk istilohida qiltomoq deyiladi** va ungacha yuz bergan **falajlikdan** iboratdir.(21-bet)

Izoh: "Qiltomoq" kasalligi- tomoqdagi noqulaylik, ovqatni chaynash va yutish paytidagi qiyinchilikdan boshlanadi. Bu atama hozirgi davr tibbiyot ilmida ham ishlatiladi. Uning sinonimi tarzida "Qizilo'ngach o'smasi" birikmasi qo'llaniladi.

Asarda keltirilgan lug'atdagi tibbiyotga oid ayrim misollar(izohi bilan)

- **Anzirati go'shtxo'r- anzarut- xalq orasida u anzirati go'shtxo'r va go'sht baror(ortiqcha go'shtni yeydigan va yangi go'sht o'stiradigan yelim) ham deyiladi.- kamed astragala- Astragalla Sarcolla Dun**
- **Za'faron- shafran**
- **Novshadil- nushodir- Ammonium chioratum.**
- **Sabal- ko'z pardasining qizarishi.**
- **Sofin tomuri- oyoq osti teri vannasi- Vena sophe mogna.**
- **Shiyof yoki shof- shamcha yoki pilta dorilar [2].**

Demak, jamiyat lingvistik hayotiga ilmiy-texnik revolutsiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami, sohalari va xususiylikni aniqlash sotsiolingvistikaning eng dolzarb vazifasidir. Biz yuqorida ko'rib chiqqan tibbiyot lingvistikasiga oid atamalar misoli ayni shu tilshunoslik masalasiga bag'ishlanadi. Har bir soha bo'yicha lug'atchilik lingvistik asosda taraqqiy etishi lozim. Soha lingvistikasidagi har bir yo'nalish terminologiyasining ilmiy, ommabop variantlari xalqqa tushunarli bo'lib, asosli farqlansagina, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatli.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон Фармони.
2. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. Qonuni Bosutiy.- T., 2000.
3. Azimjon Qosimov. Tibbiy terminlar izohli lug'ati.- T., 2003.
4. Baskakov N.A va b. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent, 1979.
5. Abuzalova M. /<https://www.psychosocial.com/article-category/issue-3-volume-24/>

Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning qo'llanilishi

Abstract. This article discusses the use and function of visual aids in medical texts. Visual aids used in medical texts have been analyzed their texture in medical periodicals. The descriptive means in the medical texts are based on the fact that the richness of the Uzbek language is a factor that shows the breadth of its spiritual potential.

Key words: *medicine, speech culture, visual medium, medical metaphor, periphrases.*

Nutq madaniyati, nutq odobi, tilning qudrati kabi masalalar tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi hisoblanadi. Mamlakatimizda til sohasidagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'tirof etilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tilining nufuzini oshirish to'g'risidagi ma'ruzasida shunday fikrlar aytib o'tilgan: "Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanilishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi." [Mirziyoyev, 2019:1] Tibbiyot sohasida qo'llaniluvchi yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga solish hozirgi kunda tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Tibbiyotga oid atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratishda tilning tasviriy vositalaridan o'rinli foydalanish zarur, ayni paytda, bu davlatimizning til siyosati bilan bog'liq maqsad va vazifalarga muvofiq. Nutq madaniyati og'zaki va yozma adabiy til me'yorlarini egallash, turli kommunikativ sharoitlarda tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati demakdir. Tilning tasviriy vositalari faqatgina badiiy adabiyotda emas, balki tibbiyotga oid matnlarda ham qo'llaniladi. Zero, tasviriy ifoda va metaforalardan foydalanish bunday matnlarning ta'sirchanligini, ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizdagi har bir shaxs, har qanday mutaxassis, bugungi kun bilan hamnafas har qanday kadr o'z ona tilini mukammal egallashi, fikrini mustaqil, ravon, lo'nda va go'zal ifoda eta olmog'i lozim. Ayniqsa, shifokorlarning nutq madaniyatini rivojlantirish va nutqiy muloqot mahoratini oshirish zamonaviy tilshunoslikda tibbiy lingvistikaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Yunon hakimi Buqrot aytganidek, "Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo'lmaydi". Bu fikr nafaqat o'tmishda, balki hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Chunki tibbiyotda davolash omillari sirasida so'zning shifobaxsh omil sifatidagi ahamiyati yanada ortganligidan dalolat beradi.

Shifokor bemor bilan doimiy muloqotda bo'lishi va bunda asoisy rolni til vositalari bajarishi alohida isbot talab etmaydi. Ammo suhbatdoshiga fikri tushunarli va ta'sirchan bo'lishiga intilganligi bois oddiy so'zlar, odatiy ifodalardan tashqari metaforalardan ham foydalanadi. Metafora narsa, belgi va

*Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti
niyozovamehribonu@gmail.com

harakatga xos atamaning o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo‘llanilishi va shu tushunchani nomlashidir. Shuningdek, bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog‘liq emasligini, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o‘chlik bilan aloqadorligini, nomi bor narsalarni ham metaforik yo‘l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligini kuzatish mumkin. Tibbiy davriy nashrlarda keltirilgan metaforalarni kuzatar ekanmiz, o‘zbek tilida fikrni butun nozikligi bilan ifodalash imkoniyati mavjudligiga guvoh bo‘lamiz.

Chunonchi, tibbiy davriy nashrlarda quyidagi metaforalarni kuzatdik.

Og‘iz bo‘shlig‘i bilan bog‘liq metaforalar. Vaqt o‘tishi bilan milkning cheti yemiriladi va tish-milk **cho‘ntak** (tish va milk orasidagi chuqurcha)lari paydo bo‘ladi, u yerda ovqat qoldiqlari to‘planib qoladi. [“Hamshira”, 2012.-№1(57): 31] Og‘iz bo‘shlig‘ining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri kariyesdir. Kariyes paydo bo‘lganda, avvalo, tish emali shikastlanadi. Agar davolanmasa, u tishning qattiq to‘qimalarini shikastlaydi. Masalan, kariyesning quyidagi turlari mavjud: **Sut solinadigan shisha sindromi** bolani kechasi shishadagi shirin ovqat bilan boqish natijasida kariyes paydo bo‘ladi. **Qarovsiz qolgan kariyes** og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasiga ahamiyat bermaslik va o‘z vaqtida sanatsiya qilmaslik natijasida paydo bo‘ladi. [“Hamshira”, 2012.-№1(57): 31]

Enurez kasalligi bilan bog‘liq metafora. Odamlarda peshob yoxud siydik tuta olmaslik bilan xarakterlanadigan kasallik enurez deb ataladi. Ko‘pgina hollarda enurezdand aziyat chekuvchilar bolalar sanaladi. Aksariyat mutaxassislar olti oy va undan ko‘p vaqt davomida uyqu paytida siyish jarayoni ustidan nazoratning o‘rnatilishini **“quruq davr”** hisoblashadi. [“Hamshira”, 2012.-№1(57):31] Siydik tuta olmaslikning etiologik mexanizmlaridan biri shartli **“soqchilik” refleksidir.** [“Hamshira”, 2011.-№1(53):19]

Ko‘z bilan bog‘liq metafora. Ko‘z **shox pardasi**, qizarsa yoki og‘risa, tavsiyadan foydalanib, darddan xalos bo‘lish mumkin: kechqurun uyqu oldidan ko‘zlarni yumib **ko‘z kosasiga** yaxshilab yuvilgan regan barglari ikki qavat qilib qo‘yiladi. [“Shifo-info”, 2020.-№20:35]

Shu sababli ko‘zni ho‘llab turadigan **ko‘z yoshi pardasi** qisman quriydi va **quruq ko‘z** sindromi yuzaga keladi. Ko‘z atrofi buyrak va buyrak usti bezining ahvolidan **“gapiradi”**. **Ko‘z ostidagi xaltachalar**, pastki qovoq rangining o‘zgarishi, mayda toshmalar buyrakdan xabar olish kerakligini ta’kidlaydi. [“Hamshira”, 2012.№1(57):22]

Yurak bilan bog‘liq metafora. To‘sh suyagi uqalagandan so‘ng **ko‘krak qafasi** qayta ko‘tariladi va yurak qon bilan to‘ladi. Mazkur uqalash usuli ikkita mexanizm bo‘yicha qon aylanishini ta‘minlaydi: yurak kompressiyasi natijasida; ko‘krak ichi bosimining o‘zgarishi hisobiga (**ko‘krak nasosi**). [“Shifo-info”, 2021.-№4: 8-11]

Tibbiy tekshuruv bilan bog‘liq metafora. Barmoqlar bilan urib ko‘rilganda tanadan chiqadigan tovushlarning turli xil ekanidan o‘pka, jigar, o‘t pufagi va boshqa a‘zoldagi xastaliklarni aniqlash mumkin. Masalan, barmoq bilan urib ko‘rilganda **to‘mtoq tovush** (zich a‘zolar, ya’ni jigar, **o‘t pufagi** usti, o‘pka to‘qimalarining zichligi oshganda eshitiladigan yuqori tonli qisqa tovush) chiqishi mumkin.

Nutq madaniyatining yuksakligi undagi tasviriy vositalarga bog‘liq. Shirin suhbat, yoqimli muloqot yoki go‘zal nutqning yuzaga kelishini bevosita tilning rang-barang imkoniyatlari ta‘minlaydi. Shunday imkoniyatlardan biri tasviriy vositalardir. Shifokor fikrining bemorga ta‘sirchan, aniq, tushunarli yetkazilishida tasviriy ifodaning o‘rni beqiyos. Xususan, tasviriy ifodadan unumli va o‘z o‘rnida foydalana olgan shifokorning so‘zi shirali, ta‘sirchan va yodda qoluvchan bo‘ladi. Kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifrasi deyiladi. [Qo‘ng‘urov, 1977: 48]

Taloq bilan bog‘liq tasviriy ifoda. Taloq – odam va umurtqali hayvonlarning qorin bo‘shlig‘idagi toq parenximatoz organ. Asosiy qon rezervuarlaridan biri. Xususan, taloq qon oqimidan o‘z umrini yashab bo‘lgan qizil qon hujayralarini “tutib” oladi, neytrallaydi, shuning uchun taloqni **“eritrotsitlar qabristoni”** deb ham ataydilar. Taloqni ushlab turuvchi bog‘lamlar kuchsiz bo‘lsa, u qorin bo‘shlig‘ida o‘z joyini o‘zgartirib qo‘yishi mumkin, bunday **“adashgan” taloq** ko‘pincha ayollarda uchraydi. [“Hamshira”, 2012.-№3:26]

Intuitsiya bilan bog‘liq tasviriy ifoda. Intuitsiya – haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyati. Jismoniy olam hududlaridan chetga chiqib ketgan intuitsiyani odamlar har xil nom bilan ataydilar. Kimlardir buni **“g‘oyibdan bilish”**, deydilar, kimdir **“oltinchi sezgi”**, deydi. Biz esa uni **“ichki hissiyot”** yoki **“ichki tovush”**, deb yuritamiz. Afsuslar bo‘lsinki, inson o‘z ichidagi bu **ogohlantiruvchi ovoza** quloq solmaydi. [“Hamshira”, 2011.-№1:31]

Parazitlar bilan bog‘liq metaforalar va tasviriy ifodalar. Parazitlar boshqa organizmlarning tanasida yoki ichida yashab, uning hisobiga oziqlanuvchi jonivor yoki o‘simlik sanaladi. Ko‘pchilik qorindagi **“hayvonot bog‘i”**, **“zoopark”** dan bezor bo‘lib, davo choralarini izlashga tushadi. Gijjalarni zoopark deb atashimizga sabab kishi organizmida ularning 250 dan ortiq turi parazitlarcha hayot kechiradi. [“Shifo-info”, 2021.-№20:11]

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, sayyoramizning 90 foiz aholisiga noahil organizmlar joylashib olgan. Bu **“qo‘shni”**ni orttirib olishdan osoni yo‘q ekan. Ostritsa – **yo‘g‘on ichak “ijarachisi”** bo‘lib, uni ko‘pincha yetarli gigiyenik ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan kichik yoshdagi bolalar yuqtirib olishadi. Oxirgi paytlarda odamlar aqldan ozib qolishdi – ommaviy ravishda organizmdan parazitlarni haydashmoqda. Emishki, tanamiz **“so‘rg‘ichlar”** bilan zararlangan. It parazitdan tashqari jigarga uning yovvoyi hayvonlarda yashaydigan **“qarindoshi”** joylashib olishi mumkin. Uni **“jigar qotili”** deyishadi. Ichakdagi **“tekinxo‘rlar”** ko‘p jihatdan beozor bo‘lib, organizmdan birdan sakrab chiqqandagina ruhiy jarohat yetkazishi mumkin. [“Shifo-info”, 2021.-№29:24-29]

Tilshunos olim A.N.Kojin perifrasi “hodisaning ikkinchi nomi” deb ataydi va perifrazalar nutqning ekspressivligini oshirish vositasi ekanligiga ko‘proq e‘tibor qaratadi. U perifraza masalasiga publisistik nutqning stilistik birligi sifatida yondashish kerak, deb hisoblaydi. [Kojin, 1977:89-94.]

Ko‘z atrofi buyrak va buyrakusti bezining ahvolidan **“gapiradi”**. Ko‘z ostidagi xaltachalar, pastki qovoq rangining o‘zgarishi, mayda toshmalar buyrakdan xabar olish kerakligini ta‘kidlaydi. Og‘iz suti bolaning steril ichaklariga

muhim foydali bakteriyalar **ekadi** va bu juda muhim jarayon hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollarda jonlantirish vositasidan foydalanilgan. [“Shifo-info”, 2021.-№20:11]

Demak, “**gampiradi**”, “**ekadi**”, soʻzlari jonlantirish vositasi orqali shakllantirilgan. Jonlantirishda jonsiz ashyolar goʻyo jonlidek harakat qiladi, soʻzlaydi va his etadi. Tibbiyotga oid matnlarda jonlantirish vositasida shakllangan birliklar axborotni taʼsirchan va yorqin ifodalash maqsadida qoʻllaniladi. Jonlantirilgan narsa-hodisa axborotni qabul qiluvchi (oʻquvchi, kitobxon) ongiga tez yetib borishi, aniq va obrazli tasavvurni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, Gansni odam va hayvonlar organizmida behad kuchli yoki patologik taʼsirlar natijasida roʻy beradigan asabiylik omillarini, ular **doyalik qiladigan** kasalliklarning urchishi, rivojlanishi, kechish bosqichlari va asoratlarini jiddiy oʻrganishga kirishdi. [“Salomat boʻling”, 2021.-№7:12] Doya – toʻlgʻoq tutgan ayollarni tugʻdiruvchi xotin. Yuqorida asabiylashish va siqilish inson organizmida tur xil kasallikning paydo boʻlishiga sababchi boʻlganligi uchun doyaga oʻxshatilgan. Yaʼni doya va asabiylashishning vazifasi bir – tugʻdirish.

Davriy nashrlarda kuzatilgan tibbiyotga oid tasviriy ifodalar soʻzlarning uslubiy qoʻllanish doirasi, asosiysi, inson salomatligi, kasalliklar va ularga xos xususiyatlarni, umuman, tibbiy tushunchalarni nomlash, tasvirlash imkoniyatining kengligi haqida yetarlicha maʼlumot bera oladi. Axborotlashgan va axborotlar koʻlami kengaygan davrda jamiyat ahliga zaruriy maʼlumotlarni aniq, ishonchli, tez, taʼsirchan, qulay shaklda yetkazib berish bilan bogʻliq masalalar tibbiy matbuot matnini yaratuvchilar yoki tibbiyot mutaxassislarinigina emas, balki tilshunoslarni ham birday qiziqtiradi.

XXI asr tibbiyoti va tibbiy madaniyati jadal rivojlanayotgan ekan, soha lingvistikasining alohida koʻrinishi sifatida tibbiy lingvistika ham oʻsishda davom etadi. Bugungi kunda shifokor nutqini oʻrganish, tibbiy muolaja jarayonida qoʻllaniladigan soʻz va iboralar, dori-darmon nomlari, inson tana aʼzolarini oʻzbek adabiy tili va nutq madaniyatiga mos ravishda tartibga solish tilshunoslikning tibbiyot bilan aloqadorlikda ish koʻrishini belgilaydi. Tibbiy terminlarning shakllanishida tasviriy vositalarning oʻrni beqiyos. Metafora, tasviriy ifoda, jonlantirish badiiy adabiyotning asosiy mexanizmi boʻlishiga qaramay, tibbiyotga oid nutqda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan marosimdagi nutqi//<https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
2. Кожин А.Н. Перифрастические построения в языке советской эпохи// Русский язык в школе.1977.-№4. – С.89-94.
3. Қўнғуров Р.Қ. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 172 б.
4. “Hamshira” jurnali, 2011.-№1(53). –В.19-20.

4-SHOʻBA

TIBBIY BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TADQIQI

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтаңым негиздері (Q.Jўbanov сөзтаңымындаг ы лексикология мәселелері)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика негизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma’naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To’yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o’quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho’ba. O’zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So’z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug’atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To’rayeva Sh.</i>	<i>So’z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so’z birikmalarining tibbiyotda qo’llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro’zova M.G’.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho’ba. Tibbiyot ta’limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G’aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O’zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo’llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag’ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248